

TURK XOQONLIGI DAVRIDA MAHALLIY BOSHQARUV MASALALARI

Shokirova Ferangiz

BuxDU talabasi.

Rajabov Oybek

Ilmiy rahbar. BuxDU katta o'qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11306120>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk o'rta asrlarning qudratli davlatlaridan biri hisoblanuvchi Turk xoqonligining vujudga kelishi, davlatning ikki qismiga bo'linishi va ulardag'i mahalliy boshqaruv masalalari bo'yicha yangi tadqiqot natijalari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Turk xoqonligi, boshqaruv tizimi, siyosiy hayot, unvonlar va boshqalar.

ISSUES OF LOCAL GOVERNMENT DURING THE TURKISH EMPIRE

Abstract. This article describes the new research results on the creation of the Turkish khanate, which is considered one of the powerful states of the early Middle Ages, the division of the state into two parts, and the issues of local governance in them.

Keywords: Turkish khanate, government system, political life, titles, etc.

ВОПРОСЫ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ ВО ВРЕМЯ ТУРЕЦКОЙ ИМПЕРИИ

Аннотация. В статье представлены результаты новых исследований возникновения Турецкого ханства, считающегося одним из могущественных государств раннего средневековья, разделения государства на две части и вопросов местного управления в них.

Ключевые слова: Турецкое ханство, государственное устройство, политическая жизнь, титулы и т.д.

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya ya'ni, Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Turk hoqonligi xususidagi manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiyarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar hisoblangan - Urxo'n-Yenisey, runiy yozuvlari, Xitoyning "Tan xonadoni tarixi" qabilardir. Shuningdek, o'rta asr mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy hamda Narshaxiy asarlarida ham Turk xoqonligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

576 yilga kelib Turk hoqonligi Manchjuriyadan Kimmeriy Bosporigacha, Yenisey yuqori oqimlaridan Amudaryo yuqori oqimlarigacha cho'zilgan edi. Shu tariqa turk xoqonlari siyosiy va madaniy merosi O'rta Osiyo va Janubi-Sharqiy Yevropa tarixiga sezilarli ta'sir kursatgan dastlabki Yevroсиyo imperiyasiga asos solgan edilar.

Turk xoqonlari o'rtasidagi o'zaro kurashlar 20 yildan ziyodrok, davom etib 603 yilda davlatning 2 ta: G'arbiy va Sharqiy kismlariga bo'linib ketishi bilan yakunlandi. Sharqiy Turk hoqonligi Mug'uliston hududlarini, G'arbiy Turk hoqonligi esa, Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryosi bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir kismini o'z ichiga olgan. Hoqonlar Sheguy va To'n yabg'u davrlarida G'arbiy Turk xoqonligi vaqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Bu davrda

hoqonlikning hududlari kengaydi, davlat boyidi va harbiy qabila zodagonlarining mavqyei kuchayib ular hoqonlar hokimiyatidagi harbiy muvaffaqiyatlarni ta'minlab turdilar. Shaguy G'arbiy hoqonlikning sharqiy chegaralarini Oltoy qilib belgiladi va o'z hokimiyatini Tarim havzasasi va sharqiy Pomir oldigacha cho'zishga muvaffaq bo'ldi. To'n yabg'u (To'n Baxodir) hoqonlikning g'arbiy hududlarida faol siyosat olib borib xoqonlikning kishki qarorgohini Chu daryosi vohasidagi yirik savdo hunarmandchilik markazi bo'lган Suyobga (xozirga To'qmoq yakinidagi Oqbeshim ko'hna shahri), yozgi qarorgohini esa Isfijob yaqinidagi Mingbuloqqa, hozirgi Turkiston shahri yaqinida ko'chiradi.

To'n yabg'uning yangi yurishlari tufayli hoqonlik chegarasi Amudaryoning yukori okimlaridan Hindiqushgacha cho'ziladi.

Turk hoqonligida davlatning oliy hukmdori "hoqon" unvoniga ega bo'lgan. Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikning markazi, davlatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo'lib u uchta kuch - osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyatini tufayli yuzaga keltiriladi.

Hoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor "Yabg'u" (Bahodir) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo'lgan uluslarga bo'linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko'ra taxt aksariyat hollarda otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalar to taxtga o'tirgunlariga qadar o'zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, hoqonning nazoratchisi – "tudun" deb atalgan. Turk hoqonligi konfederativ davlat bo'lgan. Turkiylar o'z yurti va davlatini "el" deb atashgan. Birinchi turk hoqoni Buminxon elxon unvoniga ega bo'lganligi bejiz emas.

Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yakin qarindoshlari, hukmron sulola a'zolari yordam berar edi. Manbalarda bu to'rtga bo'lingan. Ya'ni, qarindoshlar, hoqonga ittifoqdosh qabilalar; hoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi ma'muriy xodimlar; hoqonning chap tomonida o'tiruvchi amaldorlardan iborat bo'lgan. Hoqonning qarindoshlari - o'g'llari, amakisi, jiyanlari va aka-ukalariga "tegin" unvoni berilgan. Xitoy manbalarida hoqonlikda beshta oliy mansab - yexu (yabg'u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) kabilalar bo'lib, barchasi meros bo'lib qolgan.

Turk hoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va boshqalar) bilan mashg'ul bo'lib, zabit etgan hududlardagi boshkaruv tizimiga ma'lum darajada erkinlik berilgan. Jumladan, Farg'ona, Sug'd, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Sug'd va Farg'onada oliy hukmdor-“ixshid”, Toxaristonda-“malikshoh”, Xorazmda-“xorazmshoh”, Keshda-“ixrid”, Buxoroda-“xudot”, Ustrushonada-“afshin”, Choch va Ilokda-“budun” deyilgan.

Ilk o'rta asrlardagi Sug'd konfederatsiyasi mulklari soni Syuan-Szan (629-630)ga ko'ra, markaz Kan (Samarqand) Mimokiya/Mimoxe (Maymurg'), Szebudana (Kabudan), Syuyshuanniszya (Kushoniya), Buxo (Buxoro), Szeshuanna (Kesh) kabilardan iborat bo'lgan.

Manbalarda Sug'd poytaxti dastlab Kesh, so'ngra Samarqand bo'lganligi e'tirof etiladi¹.

Mayjud barcha mulklar soni VII asr o'rtalarida 11 ta bo'lgan degan fikrlar ham mayjud, bunga Afrosiyob devoriy suratlarida Varxumanning elchilarini qabul marosimi tasvirida keltirilgan 11 ta qizil bog'ichli tug'lar misol qilib keltiriladi². G'.Boboyorovning V.A.Livshisga suyanib ta'kidlashicha, 11 ta tug' bu "o'n o'q" + yabg'u, tug'ning to'qqiztasi esa xitoy manbalarida keltirilgan 9 ta chjaou xonadoni hisoblanadi. Markaziy Sug'dda 9 ta mulk bo'lgan, Buxoro Sug'di siyosiy jihatdan Samarqandga tobe bo'lмаган, lekin tarixiy-madaniy jihatdan Sug'dning bir qismi hisoblangan. Kesh va Nasaf esa 712 yildan rasmiy jihatdan Samarqandga bo'ysundirilgan. Sug'd ma'muriy jihatdan ikkita siyosiy birlik Samarqand va Buxoro Sug'di hamda konfederativ asosda birlashgan Kesh va Nasafdan iborat edi. Mulklarning chegarasi ham tarixiy voqealar va davrga qarab o'zgarib turgan.

Mustaqil siyosat yuritgan G'arbiy Sug'd-Buxoro atrofida esa 22 ta mulk birlashgan edi. Al-Mas'udiy Buxoro vohasini o'rabi turgan devor Sug'd ixshidlari tomonidan qurilganini qayd etsa, Yoqut al-Hamaviy, ikki Sug'd: Samarqand Sug'di va Buxoro Sug'di borligi haqida ma'lumot beradi hamda Poykent shahrining mustaqil ichki ma'muriy boshqaruvga egaligini ta'kidlaydi.

"Hudud ul-olam"da Buxoroning katta va obod shaharligi, Poykentning esa boy shahar ekanligi eslatiladi. Buxoroga bo'ysunuvchi 22 ta mulkning 15 tasi Buxoro vohasi mudofaa devori ichida, 7 tasi tashqarisida bo'lgan. Markazga Tavovis, Quyi Xarqana, Hitfar, Qoxushtivon, Yuqori Samjon, Quyi Samjon, Yuqori Faraviz, Quyi Faraviz, Zar, Farg'idat, Farob, Poykent kabilar bo'ysungan³.

Xitoy manbalarida keltirilgan Nyumi (Numichkat) ilk o'rta asrlarda quyi Zarafshonda maxsus mudofaa devorlari bilan o'ralgan beshta istehkomli qal'alardan iborat bo'lgan⁴. Buxoro va Samarqand o'rtasida Ishtixon, Kushoniya mulklari joylashgan. Narshaxiyga ko'ra, Buxoro o'rniga aholi dastlab Turkistondan kelgan va ular chodir va o'tovlarda yashagan. "So'ng vaqt o'tishi bilan odamlar yig'ilib imoratlar qurdi", - deb qayd etadi muarrix. Numichkat va Farobdiz shaharlari qadimiyroq bo'lgan. Vohada Buxorodan qadimiyroq yana Nur (Nurota), Xarqanrud (Xarqana), Vardana (Qo'rg'oni Vardonze), Tarovcha (Tarob), Safna va Isvona qishloq (kent)lari va podsho turadigan katta qishloq (kent) Poykent (Boykent) mavjud bo'lgan.

Poykent ilk o'rta asrlarda 20 gektarli kuchli mudofaa devori bilan o'ralgan shahar bo'lib, shahar ichida hukmdor arki joylashgan. Turk shahzodasi Abruy xalqqa zulm qilgach, boy savdogarlar va dehqonlar o'z yurtlarini tark etib, "Turkiston va Taroz (yaqinida) bir shahar bino qilib", uni o'z yetakchilaridan biri Hamuk nomi bilan "Hamuket deb nomlaydilar". Buxoro ahli Turk yabg'u-xoqoni Istim o'g'li Biyog'u, (Buyuk yabg'u) Qoracho'rindan yordam so'raydi.

Yabg'u - xoqon o'z o'g'li El Arslon (Sheri Kishvar)ni Buxoro vohasida tartib o'rnatishga jo'natadi. U Poykentda Abruyni qatl ettirib, otasining roziligi bilan Buxoroni o'z tasarrufiga oladi.

El Arslon (Sheri Kishvar) Hamukatga odam yuborib, Buxorodan ketgan aholini qaytaradi. "Hamuketdan kelgan har bir kishi (amir)ning yaqin kishilaridan bo'ldi", - degan buyruq beradi.

¹ А.Отахўжаев. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-сўғд муносабатлари. Т.,2010.-Б.73-73.

² Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.,2007. – Б. 30.

³ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Б. 31.

⁴ Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро (археологик лавҳалар ва тарих). Т.,1991. – Б. 34–38.

Bu guruh orasida yurtning avvalgi hukmdori “Buxorxudot” bo‘lgan. Bu Buxoro Sug‘dini 22 - avlod boshqarayotgan edi.“Tan shu”da Buxoroning chjaou hukmdori Sha-Alaniya nomi zikr etiladi. N.Ya.Bichuringa ko‘ra, Alinga, E. Shavannda esa Holing-kia deb o‘qilgan bu hukmdor 22 - podsholar avlodini tashkil qilgan.

Chjao-ular boshqaruviga Abruy chek qo‘ygan, xuddi Samarcandda bo‘lgani kabi Buxoro ham Sheri Kishvar – El Arslondan so‘ng turkiy sulola qo‘liga o‘tgan. El Arslon (Sheri Kishvar) davrida (585/586 – 605/606) Abruy vayron qilgan qo‘rg‘on va qal’alar tiklandi. Buxorxudot bino qildirgan Varaxsha esa Xunukxudot davrida qayta ta’mirlangan va Bunyod ibn Tug‘shoda mazkur qasrni yangilagan.

Arablar istilosini davrida Buxoroni boshqargan turkiy sulola – buxorxudotlar va shadlar sulolasi asoschisi El Arslon (Sheri Kishvar) edi. Milodiy asr boshlaridan qadar hukmronlik qilgan mahalliy sulola vakillari – buxorxudotlar xoqonlik vassali bo‘lgan. Shu bois El Arslon (Sheri Kishvar)ga nisbatan buxorxudot unvoni qo‘llanilmagan. El Arslondan keyingi avlodlarigina xudi Samarcandda ixshid unvoni saqlangani kabi, mahalliy unvon “buxorxudotlar” deb yuritilgan.

El Arslon (Sheri Kishvar)dan so‘ng Buxoroni “Tan shu”ga ko‘ra, taxminan 600/605 – 620-yillarda Shelidin yoki Sheli boshqargan. 620-630 – yillarga kelib, Buxoro taxtiga Nishu Gyana shad (Narshaxiy bo‘yicha Sheri Kishvarning nevarasi Kano) kelgan bo‘lsa, 649-yildan esa xitoy manbalariga ko‘ra Xelinsze Buxoro hukmdori bo‘lgan. Arab manbalariga ko‘ra, 640-660-yillarda Buxoroni Sheri Kishvar avlodlaridan Sha (shad) - boshqargan. “Tan shu” va “Chefu” solnomalariga suyangan O.I. Smirnova fikricha, 660-680-yillarda, G‘. Boboyorov bo‘yicha, yanada aniqroq 673-680 yillar davomida Buxoroni Bidun buxorxudot boshqargan. U arab istilosini davrida Muslim ibn Ziyod tomonidan o‘ldirilgan. O‘g‘li Tug‘shoda yosh bo‘lganligi bois davlatni malika Qabaj Xotun boshqarib turgan. Bu haqda Narshaxiy: “Bidun Buxorxudot o‘lgan vaqtida bir emadigan o‘g‘il bola qoldi. Uning nomi Tug‘shoda edi. Bolaning onasi bo‘lgan xotun taxtga o‘tirdi va o‘n besh yil (680-695) hukmronlik qildi”⁵, - deb yozadi. Uning boshqaruv davri arab istilosining dastlabki bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bellariga oltin kamar va qilich taqib olgan 200 chog‘li qurolli chokarlar uning xizmatida bo‘lgan. Bu yigitlar bir yilda to‘rt marta shu vazifaga chorlangan.

Xitoy manbalari An (Buxoro) chje-ge (chokar)larini “mard va jasur kishilar” deb ta’riflaydi. 695 yilda Qabaj Xotun vafot etib, taxt o‘g‘li Tug‘shodaga o‘tadi. Tug‘shoda I ibn Bidun (arabcha - Tugas pada, xitoycha - Dusabati) 32 yil yurtni boshqargan. Unga Turkistondan Vardonxudot ismli bir vazir kelib yordam bergen va 707/708–709/710 yillarda u Tug‘shoda bilan davlatni boshqargan. Tug‘shodaning hukmronlik davri (693/695-739) ham arab istilosiga to‘g‘ri keladi.

REFERENCES

1. Rajabov, O. (2021). “Тарихи Муллозода” асари–Бухоро муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари тарихи бўйича муҳим манба. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 8(8).

⁵ Наршахий. Бухоро тарихи. Т., 1991. – Б. 92.

2. Rajabov, O. (2021). Chor Bakr tarixiy me'moriy majmuasi xususida. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
3. Rajabov, O. I. (2022). History of fortress of Makhmud Torobi. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 50-54.
4. Rajabov, O. I. (2021). Buxorodagi ayrim muqaddas qadamjo-qal'alar xususida. *Scientific progress*, 1(6), 1162-1168.
5. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
6. Umarov, B. B. (2022). Science, education and culture during the rule of the Somanians. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
7. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI (“KITOB AL-MASOLIK VAL MAMALIK” MISOLIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 38(38).
8. Umarov, B. (2023). ABU BAKR NARSHAXIY ASARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 166-166.
9. Umarov B. NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO'JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
10. Umarov, B. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
11. Umarov, B. (2020). БУЮК ОЛИМ НА КИСЛЯКОВНИНГ ПЕДАГОГЛИК ФАОЛИЯТИГА НАЗАР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).